**TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI**

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,8% o'sdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 26,0 foizni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 113,5 % ga o'sdi.

***2019 yil yanvar oyida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da )***




2018 yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Юнусобод тумани 115,0%,Мирзо-Улуғбек тумани 112,8% Chilonzor tumani 111,7%, Yakkasaroy tumani 110,7%, Sergeli tumani 107,5% da qayd etilgan bo'lsa, ayrim tumanlarda, jumladan, Shayxontoxur tumani 94,5%, Учтепа tumani 101,8% hamda Bektemir tumanlarida 102,8% nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 138,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 104,9 % ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 6,0% ni tashkil etdi.

**Tumanlarning umumiy ovqatlanishdagi ulushi**

(jamiga nisbatan foizda)




Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Sergeli tumani 14,3%, Yakkasaroy tumani 12,4%, Shayxontoxur tumani 11,0 %, Uchtepa tumani 10,8% Olmozor tumani 12,4 %, tashkil etgan bo'lsa, Yashnobod tumani 3,3 % Bektemir tumani 5,2 % va Mirzo-Ulug'bek tumani 6,6% ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

**Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi**

(jamiga nisbatan, foizda)




Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 26,0 % ni tashkil etib, chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo’lgan Chilonzor tumani (19,2 foiz), Shayxontoxur tumani (14,3 foiz), Uchtepa tumani (11,4 foiz), Bektemir tumani (11,1 foiz), va Yunusobod tumani (10,4 foiz) bilan chakana savdo tovar aylanmasining o’sishiga ijobiy ta’sir ko’rsatdi.

Ayrim tumanlarda, jumladan, Olmazor tumani (3,9 foiz), Mirzo-Ulug’bek tumani (4,9 foiz), Yashnobod tumani (5,6 foiz)larida past ko’rsatkichlar kuzatilgan.

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 936,4 ming. so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir tumani (7677,4 ming. so'm), Chilonzor tumani (1848,2 ming. so'm), Yakkasaroy tumani (1242,6 ming.so'm), Mirobod tumani ( 1230,7 ming. so'm) Uchtepa (1001,7 ming. so'm), kuzatildi.




**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

| | Ming. so'm | o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda |
|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | 936,4 | 103,9 |
| tumanlar: | | |
| Uchtepa | 1001,7 | 100,3 |
| Bektemir | 7677,4 | 99,9 |
| Yunusobod | 739,8 | 113,1 |
| Mirzo Ulug'bek | 426,4 | 111,4 |
| Mirobod | 1230,7 | 104,9 |
| Shayxontoxur | 999,6 | 92,7 |
| Olmazor | 257,9 | 101,3 |
| Sergeli | 741,3 | 104,3 |
| Yakkasaroy | 1242,6 | 109,3 |
| Yashnobod | 566,5 | 103,6 |
| Chilonzor | 1848,2 | 109,8 |

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

(o’sish su’rati o’tgan yilga nisbatan,foizda)




2018 yil yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahar bo‘yicha aholi jon boshiga 936,4 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 %ga ko‘paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar oyida o‘tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o’sgan Yunusobod tumani 113,1 %, Mirzo-Ulug’bek tumani 111,4 %, Chilonzor tumani 109,8 %,Yakkasaroy tumani 109,3% va Mirobod tumani 104,9 % tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo‘yicha o’sish sur’ati eng kam ko‘rsatkichlar Shayxontoxur tumani (92,7%), Bektemir tumanida (99,9%) qayd etilgan.

Kichik korxona va Mikrofirmalar  ulushi

(jami chakana  savdo aylanmasidan )




Kichik korxona va mikrofirmalar jami chakana savdo tovar aylanmasida ulush eng katta bo’lgan tumanlar: Olmazor tumani (57,1%), Mirobod tumani (52,5%), Mirzo-Ulug’bek tumani (51,9%), Yunusobod tumani (29,6%). Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o’sishiga ijobiy ta’sir ko’rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko’rsatkichlarga ega tumanlar ham bor, jumladan, Bektemir tumani (10,3%), Uchtepa tumani (11,8%), Chilonzor tumani (17,3%) hissasiga to’g’ri kelayotgan bo’lsa, Yakkasaroy tumani (27,3%), Sergeli tumani (24,9%),Yashnobod tumani (27,2%) hamda Shayxontoxur tumanlari (24,5%) o’rtacha ko’rsatkichlarga ega.

## *2019 yil yanvar oylarida ulgurji savdo*

2019 yil yanvar oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1933,9 mlrd. so‘mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 94,9 % ni tashkil qildi.



Kichik korxona va mikrofirmalar 1697,2 mlrd. so’mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,7 %ni tashkil qildi.




Kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko’p ulushga ega tumanlarga Uchtepa tumani (99,7%), Shayxontoxur tumani (97,9%), Yunusobod tumani (96,4%) va Bektemir tumani (95,7%), eng past ulush esa Yakkasaroy tumanlariga (74,8%), Olmozor tumani (81,5 %) va Mirobod tumani (81,7%), to’g’ri kelgan.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi**

(jamiga nisbatan foizda)




Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo’lgan tumanlar Yakkasaroy tumani 18,0 %,Mirzo-Ulug’bek tumani 12,7 %, Yunusobod tumani 11,4 %, Mirobod tumani 11,0%, Olmozor tumani 10,4 % tashkil etgan bo’lsa, shu bilan bir qatorda ba’zi bir tumanlar ya’ni Bektemir tumani 1,4 %, Uchtepa tumani 5,0%, Sergeli tumani 5,2 %, Yashnobod tumani jamiga nisbatan eng past ko’rsatkichlarni qayd etdi.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

(jami ulgurji savdo aylanmasidan )




Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori Yakkasaroy tumani 15,3%, Mirzo-Ulug’bek tumani 13,3 %, Yunusobod tumani 12,5 %, Mirobod tumani 10,2% Chilonzor tumani 10,1 %, hamda eng kam ko’rsatkichni Bektemir tumani 1,6% qayd etgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo’limi.
Tel: 230-88-20 (21)